XALQ DEPUTATLARI NUROBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 29-iyul VI-88-68-7-99-K/24 Nurobod tumani

Tuman mahalliy byudjetida past samarali xarajatlarni maqbullashtirish natijasida bo‘shab qolgan mablag‘lardan foydalanish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27-148-moddalari, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-80-127-7-99-K/23-sonli “Samarqand viloyati Nurobod tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga asoslanib, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2024-yil 12-apreldagi 03-PA 1-5365-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2024-yil 14-apreldagi 03/1-1180-sonli topshiriqlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 23-apreldagi 06/50-2-8646-sonli xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq sakson sakkizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i v.v.b A.Xudayberdiyevning tuman mahalliy byudjetida past samarali xarajatlarni maqbullashtirish natijasida bo‘shab qolgan mablag‘lardan foydalanish to‘g‘risidagi takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2024-yil uchun mahalliy byudjetdan mablag‘ oluvchi byudjet tashkilotlarining past samarali xarajatlarini maqbullashtirish natijasida bo‘shab qolgan 1 162 425,1 (bir milliard bir yuz oltmish ikki million to‘rt yuz yegirma besh ming bir yuz) ming.so‘m mablag‘lar mahalliy byudjetdan mablag‘ oluvchi byudjet tashkilotlarining yetishmaydigan ish haqi va yagona ijtimoiy soliqlari uchun yo‘naltirilsin.

3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Xudayberdiyev)ga tuman mahalliy byudjetiga tegishli o‘zgartirishlarni kiritish topshirilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Suyarov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Ibragimov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



BERDIKULOV
SIROJIDDIN
VALIKULOVICH